

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

XOTIN-QIZLAR HIMOIYASI - DOLZARB MASALA .

Mavlonova Shaxzoda Turg'unovna
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Gender konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizcha – sex) ijtimoiy jins (inglizcha – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotin-qizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar fiziologik farqlardan sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins anatomik, fiziologik tushuncha, ya'ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir .

Kalit so'zlar: *gender tengligi, ota-ona va farzand munosabatlari, oila mustahkamligi, siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim, ilm-fan, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq, G'arb va Sharq tamadduni, sharqona gender tengligi.*

Gender lotincha **genus** (inglizchada gender) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'zbek tilida jins ma'nosini beradi. Fanga genderlik tadqiqotlari tushunchasi XX asr o'rtalarida kirib kela boshladi. Gender terminini 1952-yilda Yangi Zelandiyalik ruhshunos olim Jon Mani (5) o'z ilmiy tadqiqotlarida birinchi qo'llagan. Keyinchalik 1963-yilda Stokgolmda ruhshunoslarning xalqaro anjumanida AQShlik olim Robert Stoller (6) jamiyatda ijtimoiy jinsning o'z-o'zini anglash tushunchalari to'g'risidagi ma'ruzasi orqali *gender* terminini ilm ahliga taqdim etdi hamda jinsni biologik va madaniy turlarga bo'lib o'rganishni taklif qildi. R.Stoller, biologik jinsni (inglizcha sex) biologiya va fiziologiya, madaniy jins (gender), ya'ni genderni ruhshunoslik va jamiyatshunoslik sohalarini tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblagan. Shuningdek, 1972-yilda ingliz sotsiologi Enn Oukli (4) ham "Jins, gender va jamiyat" nomli ilmiy ishida bu termini izohlab o'tgan.

Gender konsepsiyasi biologik jins bilan (inglizcha – sex) ijtimoiy jins (inglizcha – gender) farqlanishiga hamda jinslar orasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat erkaklar va xotin-qizlarning biologik o'ziga xosligi bilan belgilanmasligi, ular o'rtasidagi ijtimoiy rollar fiziologik farqlardan sezilarli ravishda kengligini anglashga qurilgan. Jins anatomik, fiziologik tushuncha, ya'ni individning biologik jinsga oidligini belgilovchi biologik xususiyatlar birligidir .

Ma'lumki, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan tashqari gender omillarga madaniy xususiyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Muayyan madaniyat insoniyat tomonidan dunyo haqidagi bilimlarni anglash va tartibga solish davomida vujudga kelgan narsa predmet, voqeliklar bo'lib, u milliy gender qarashlar shakllanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Genderchilikda gender farqlarning tashkil topish jarayoni odatda ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog'lanadi. Ijtimoiylashtirish – bu, individ tomonidan jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida faoliyat yuritish imkonini beruvchi bilim, me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashtirish o'z ichiga ta'sir etishning ijtimoiy nazorat qilish jarayonlarini qamrab oladi. Masalan, ta'lim-tarbiya, yoki uning shakllanishiga ta'sir qiluvchi tabiiy jarayonlar. Bugun ijtimoiylashtirishning muhim qismi bo'lgan gender munosabatlar psixologiya, sotsiologiya, pedagogika kabi fanlar tomonidan jadal o'rganilayotganligi bu yo'nalishda qilinishi kerak bo'lgan ishlar ko'pligidan darak beradi.

Xususan, O'zbekistonda ijtimoiy hayotda gender masalalari, gender tenglik munosabatlari berilayotgan chuqur e'tiborni amalga oshirilayotgan qator loyihalarda ko'rish mumkin. Masalan, 2019-yil 2-sentabr, O'RQ-562-sonli "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda

imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi, unga ko'ra, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan va hk. chora-tadbirlar olib borilmoqda. Shu qatorda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadi – Gender tenglikni amalga oshirish doirasida O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga oid to'qqizta vazifa ishlab chiqilgagini ham ta'kidlash mumkin. U 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni yaratish zarurligini o'z ichiga oladi.

Gender munosabatlarda xalqaro standartlarga haqiqiy yaqinlashuvga erishish, eng muhimi, ayollarni jamiyatning barcha jabhalarida faol ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha qator oddiy, ammo samarali chora-tadbirlar mavjudligini ta'kidlash mumkin. Mamlakatimizda, kvota tizimining ayollarga yo'naltirilganligining ortib borayotganligini, ayniqsa, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan voqeliklar, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarga kontrakt to'lovlarini to'liq davlat tomonidan qoplanishi haqidagi amaliy chora-tadbirlarni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Shuningdek, xotin-qizlarning mahalliy darajada va ijroiya hokimiyatida vakilligining oshib borishi, ularning parlament faoliyatidagi faol ishtirokini ham ta'kidlash zarur.

Gender tengligi inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lsa-da, dunyoda gender bilan bog'liq kamsitilish, gender bo'yicha diskriminatsiya (lot. *diskriminatio* – farqlash), huquqlarning poymol etilishi, gender asimmetriya (simmetriyaning bo'lmasligi yoki buzilishi) keng tarqalgan.

Gender asimmetriya ijtimoiy hayotning ayrim sohalarida ayollar va erkaklar tengsizligini anglatadi. Masalan, davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar qabul qilish, yirik va o'rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, iqtisodiyotning kam daromadli sohalarida esa ayollarning ustunlik qilishini ko'rish mumkin. **65%** qizlar boshlang'ich va o'rta ta'limni o'g'il bolalarga qaraganda kam oladilar.

Ilm-fan yoki injeneriya sohasida ayollar ishtirokining ko'rsatkich past. Ish bilan ta'minlanish, karyera, oylik maosh miqdori, yuqori lavozimlarga tayinlanish masalalarida muammolar saqlanib qolmoqda.

va o'rta biznes sohasida erkaklarning ustunlik qilishi, iqtisodiyotning kam daromadli sohalarida esa ayollarning ustunlik qilishini ko'rish mumkin. **65%** qizlar boshlang'ich va o'rta ta'limni o'g'il bolalarga qaraganda kam oladilar.

Ilm-fan yoki injeneriya sohasida ayollar ishtirokining ko'rsatkich past. Ish bilan ta'minlanish, karyera, oylik maosh miqdori, yuqori lavozimlarga tayinlanish masalalarida muammolar saqlanib qolmoqda. Dunyo bo'ylab ko'pchilik ayollar oilaviy, maishiy va jinsiy zo'rovonliklarga qarshi huquqiy himoyaga muhtoj. Jins bo'yicha ish haqida tafovut dunyo miqyosida **23% ni** tashkil etadi va qishloq joylarda **40% gacha** yetadi. Ayollar dunyo aholisining qariyb yarmini tashkil etsa-da, milliy parlamentlar a'zolarining **18,4% i** ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Milliy parlamentda ayollarning ulushi o'rtacha **25%** dan kam.

Dunyo bo'yicha **17 ta** davlat yoki hukumat rahbari ayol kishidir. Yevropada yirik kompaniyalarning atigi **3% ini** rahbar ayollar boshqaradi [3]. Ayollarga nisbatan zo'rovonlik genderni asoslangan zo'rovonlikning eng jiddiy shakllaridan biridir. Ayollar va qizlar turli xil zo'rovonlik shakllariga duch kelishadi, ya'ni oilaviy zo'rovonlik, jinsiy ta'qiblar, jismoniy, psixologik, iqtisodiy va boshqalar.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi har beshinchi ayol jismoniy yoki jinsiy zo'rovonlikka uchraydi. Yevropadagi ayollarning **20% dan 50% gacha** qismi oilaviy zo'rovonlikdan qiynalishadi. Iqtisodiy tenglikda ham, ya'ni oziq-ovqat mahsulotlarining **50%** i xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqariladi, ammo ayollarning **1%** xususiy mulk egasidir. Dunyo aholisining qashshoq qismining **70%** i ayollarga to'g'ri keladi.

BMT tomonidan ayollar uchun rasmiy kunlar belgilab qo'yilgan:

1. 11-fevral – Xalqaro ilm-fan bo'yicha ayollar va qizlar kuni.
2. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni.
3. 9-iyul – Xalqaro zo'rovonlikka qarshi kun.
4. 11-oktabr – Xalqaro qizlar kuni.
5. 15-oktabr – Xalqaro qishloq ayollari kuni.
6. 25-noyabr – Xalqaro ayollarga nisbatan zo'rovonlikni bartaraf etish kuni.

Ushbu transformatsiya jarayonlarini G'arb va Sharq tamaddunining rivojlanish tendensiyasi, ilmiy, ijtimoiy, siyosiy va falsafiy tafakkurida ham ko'rish mumkin. Endi G'arb va Sharq allomalarining qarashlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Suqrot shaxs erkinligi va ozodligi, inson va fuqarolar huquqi haqidagi g'oyalari bilan yoshlar ongini zaharlashda ayblanib o'limga mahkum etilgan. Falsafaning otasi Platon ham o'z buyuk safdoshlari g'oyalariga sodiqligini namoyish etgan holda **“Ideal davlat”** asarida bu qarashlarni yoqlab chiqqan. Platon erkak va ayol tabiati o'rtasidagi farq nisbiy va faqat reproduktiv sohaga taalluqli degan xulosaga keladi. Ayol o'z xohishiga ko'ra kasblarni tanlashi mumkin: musiqa, falsafa yoki boshqa kasblar, shu jumladan, harbiy ishlarni ham. Platon asarida “Ayolni ushbu qiyin va mas'uliyatli vazifani bajarishga qodir deb hisoblash mumkinmi? Insoniyatning ayol qismi barcha masalalarda erkaklar bilan bir qatorda ishtirok eta oladimi?” [5], – degan savollarni o'rta tashlaydi.

References:

1. O'zbekiston respublikasining “xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda
2. Imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”Gi qonuni. 2019-yil, 2-sentabr.
3. *O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 46-moddasi*. – toshkent: “o'zbekiston”, 1992.
4. *Shavkat mirziyoyev 2019-yil 21-iyun oyida oliy majlis senatining yigirmanchi yalpi*
5. *Majlisidagi nutqi*.
6. <http://ec.europa.eu/social/main.jsp>.
7. <https://www.un.org/ru/observances/equal-pay-day>
8. [indicators of speed physical quality of students](#)
9. G ernazarov, s mavlonova
10. Science and innovation 2 (b1), 177-183
11. [Interactive teaching methods](#)
12. M shaxzoda
13. Modern science and research 2 (5), 1217-1222
14. [Muhaddis, whose eyes have returned to the light](#)
15. M shahzoda, a khurshida
16. Asian journal of multidimensional research 11 (11), 278-281
17. [Philosophy and its history](#)
18. Ms turgunovna